

**Diyora Xurramova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Cholg'u ijrochiligi mutaxassisligi magistranti  
E-mail: diyora.xurramova03@gmail.com  
ORCID: 0009- 0003-5624-8152*

## **CHANG SINFI O'QITUVCHISI FAOLIYATIDA KREATIV YONDASHUV**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarida chang sinfi o'qituvchisi faoliyatida kreativ yondashuvning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada chang cholg'usini o'qitish metodikasi bilan zamonaviy pedagogik-innovatsion usullarni uyg'unlashtirish masalalari, o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish yo'llari, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish tamoyillari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** chang, kreativlik, musiqa ta'limi, pedagogik mahorat, improvizatsiya, individual, ijrochilik madaniyati.*

## **КРЕАТИВНЫЙ ПОДХОД В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ КЛАССА ЧАНГА В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ МУЗЫКИ И ИСКУССТВ**

***Аннотация.** В данной статье освещаются роль и значение креативного подхода в деятельности преподавателя по классу чанга в специализированных школах музыки и искусств. В статье рассматриваются вопросы гармонизации методики обучения игре на чанге с современными педагогико-инновационными методами, пути формирования творческого мышления у учащихся, принципы интересной и эффективной организации учебного процесса.*

***Ключевые слова:** чанг, креативность, музыкальное образование, педагогическое мастерство, импровизация, индивидуальный, исполнительская культура.*

## **CREATIVE APPROACH IN THE ACTIVITY OF A CHANG TEACHER IN SPECIALIZED MUSIC AND ART SCHOOLS**

**Abstract.** *This article examines the role and significance of a creative approach in the professional activities of chang teachers in specialized music and art schools. Particular attention is paid to integrating traditional methods of teaching the chang with modern and innovative pedagogical approaches. The study explores ways of developing students' creative thinking, performance skills, and improvisational abilities, as well as principles for organizing the learning process in an engaging and effective manner. It also highlights the importance of an individual approach in fostering students' performing culture and artistic development.*

**Keywords:** *chang, creativity, music education, pedagogical skill, improvisation, individual, performing culture.*

“O‘zbekiston milliy musiqa madaniyati jahon sivilizatsiyasining nodir durdonalaridan biri bo‘lib, uning tarkibida chang cholg‘usi alohida o‘rin tutadi” [1]. “Chang – sehrli va nafis ohangga ega, texnik jihatdan murakkab, ijrochidan yuksak mahorat talab qiladigan milliy cholg‘u hisoblanadi” [2]. “Cholg‘uni o‘rgatish jarayoni oddiy texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilangina cheklanmasdan, o‘quvchida badiiy-estetik didni tarbiyalash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va milliy musiqa madaniyatiga hurmat tuyg‘usini singdirishni ham o‘z ichiga oladi. Ixtisoslashtirilgan musiqa va san‘at maktablarida bugungi kunda ta‘lim tizimida qo‘yilayotgan talablar, xususan ta‘lim sifatini oshirish, yosh ijodkorlarni erta yoshdan aniqlash va ularning iste‘dodini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” haqidagi qabul qilgan qarorlari ta‘lim sohasidagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar yo‘nalishda pedagoglar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi” [3]. Shuning uchun ham chang sinfi o‘qituvchisi faoliyatida kreativ yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Nafaqat chang sinfi o‘qituvchisi balkim barcha o‘qituvchilar faoliyati davomida mukammal dars tizimini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bugungi kunda faqat texnik mashqlardan foydalanib ta‘lim berish usullari zamonaviy o‘quvchining qiziqishini to‘liq qondira olmayapti. Shu bois o‘qituvchi

nafaqat mukammal ijrochi, balki ijodkor pedagog, har bir darsni qiziqarli, izlanishga undovchi, o'quvchining shaxsiy salohiyatini ochib beruvchi tarzda tashkil eta olishi lozim. Maqolaning maqsadi chang sinfi o'qituvchisi faoliyatida kreativ yondashuvning nazariy-uslubiy asoslarini yoritish, amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usul va vositalarni tavsiya etishdan iboratdir.

“Kreativlik – bu insonning yangi, noodatiy va foydali g'oyalar o'ylab topish qobiliyatidir. Ya'ni oddiy narsalarga boshqa qarash, muammolarga yangicha yechim topish demakdir” [4]. Pedagogika fanida kreativ yondashuv o'qituvchining o'quv jarayonini qiziqarli, o'quvchi shaxsini markazga qo'yuvchi tarzda tashkil etish mahorati sifatida tavsiflanadi. Chang sinfi o'qituvchisi uchun kreativlik ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi:

**Metodik kreativlik** – dars jarayonini tashkil etishda yangi usullar, vositalar va yondashuvlardan foydalanish;

**Ijrochilik-badiiy kreativlik** – o'quvchida musiqiy asarni his qilish, talqin etish, o'z ijodiy hissiyotini ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish [5]. Ushbu ikki yo'nalish o'qituvchining o'zida rivojlangan bo'lsa demak u mukammallikka erishgan pedagog hisoblanadi. Individual yondashuv – kreativlikning asosiy sharti. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat, xarakter va idrok tezligiga ega. Shu sababli o'qituvchi bir xil metodni barcha o'quvchilarga bir xil tarzda qo'llashdan voz kechib, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishi dars jarayonida va o'quvchi reytingiga samarali ta'sir qiladi. Misol tariqasida tez qabul qiluvchi, texnik jihatdan qobiliyatli o'quvchilarga murakkabroq va improvizatsion topshiriqlar berish. Sekin qabul qiladigan o'quvchilar bilan o'yin shaklidagi mashqlar, kichik badiiy vazifalar orqali ular bilan ishlash, hissiy-badiiy jihatdan sezgir bolalarga esa obrazli tasavvurni rivojlantiruvchi uslublardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Individual yondashuv o'quvchida o'z kuchiga ishonch, mustaqil fikrlash va ijodiy erkinlik hisini shakllantiradi. Kreativ o'qituvchi darsni faqatgina texnik

mashg'ulotga aylantirmaydi, balki uni kichik "ijodiy laboratoriya"ga aylantirishi joiz. Bunda o'qituvchiga quyidagi usullar samarali foyda beradi.

**1. Obrazli metod.** Har bir berilgan kuyni ma'lum bir harakter bilan bog'lab tushuntirish o'quvchida musiqani shunchaki eshitib ijro qilish emas, balki his qilish ko'nikmasini shakllantirishiga yordam beradi.

**2. Improvizatsiyadan foydalanish.** O'quvchiga tayyor notani takrorlashdan tashqari, berilgan nota va ohang asosida kichik o'zgartirishlar, melizm qo'shish yoki o'zi his qilgan ohangni improvizatsiya orqali nomoyon qilishi ijrochilik erkinligini va musiqiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

**3. Zamonaviy texnikalardan foydalanish.** Audio-video yozuvlar, metronom, mashhur changchilar ijrosidagi videolarni ko'rsatish orqali o'quvchining kuyni tahlillay olish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bunda o'quvchi kuyni yana aniq his qilib, uning obraziga to'laqonli kirib ketadi. Natijada esa ancha yuqorilashadi. Kreativ yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchining o'zi doimiy ravishda izlanishda bo'lishi, o'z ijrochilik mahorati ustida ishlab borishi, zamonaviy pedagogik va metodik adabiyotlar bilan tanishishi, boshqa o'qituvchilar tajribasini kuzatib, o'rganishi zarur. O'qituvchining o'zi sahna faoliyati bilan shug'ullanishi, konsert va festivallarda ishtirok etishi o'quvchilar uchun ilhomlantiruvchi kuch beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, o'qituvchi psixologik ijodkor bo'lishi - har bir o'quvchiga nisbatan sabr-toqatli, yaxshi munosabatda, xatolarni tanqid qilish o'rniga ularni izlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishi lozim. Bu esa o'quvchida xatodan qo'rqish o'rniga uni to'g'irlashdagi ijod hisini shakllantiradi.

Chang sinfi o'qituvchisi faoliyatida kreativ yondashuvni yanada takomillashtirish uchun, avvalo, an'anaviy chang ijrochiligi metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda differensial topshiriqlar berish, improvizatsion mashqlar va ijodiy vazifalardan muntazam foydalanish ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek,

ansambl mashg'ulotlarini kuchaytirish, milliy musiqa merosi namunalaridan samarali foydalanish hamda audio-video texnologiyalar orqali o'quvchi ijrosini tahlil qilish tavsiya etiladi. O'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi, tajriba almashishi va yangi metodik ishlanmalar yaratishi chang ta'limining sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv o'quvchining nafaqat ijrochilik mahoratini, balki mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri va sahna madaniyatini ham shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarida chang sinfi o'qituvchisi faoliyatida kreativ yondashuv ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. An'anaviy metodika bilan zamonaviy pedagogik-ijodiy usullarni uyg'unlashtirish, individual yondashuvni ta'minlash, improvizatsiya va interfaol usullardan foydalanish, repertuarni ijodiy tanlash hamda o'qituvchining o'zi doimiy ijodiy izlanishda bo'lishi – barchasi yosh changchilarning yuqori ijrochilik mahoratiga ega ijodkor, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tavsiyalarni yanada takomillashtirish, o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Karomatov F. *O'zbek xalq musiqa ijodiyoti*. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2009. – 240 b.
2. Matyoqubov O. *Musiqa nazariyasi va tarixi masalalari*. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 256 b.
3. Ismoilov B. *Milliy cholg'u asboblari ijrochiligi metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 192 b.
4. Ochilova M. *Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 176 b.
5. Karimova N. *Bolalar musiqa maktablarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish* // *Pedagogika jurnali*. – 2019. – №4. – B. 5–8.